

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2024-8/4
Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2024

Bosh muharrir:*Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.***Bosh muharrir o‘rinbosari:***Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.***Tahrir hayati:**

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.
Ametov Yakub Idrisovich, d.b.n., prof.
Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.
Gandjayevo Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.
Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.
Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.
Jumanov Murat Arepbayevich, d.b.n., prof.
Kadirova Shaxnoza Abdusalilovna, k.f.d., prof.
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.
Qutliyev Uchqun Otaboyevich, f-m.f.d.
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.
Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.
Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.

Pazilov Abduvayit, b.f.d., prof.
Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.
Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.
Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.
Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.
Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.
Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.
Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.
Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.
Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.
Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.
Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.
Safarov Alisher Karimdjaniyevich, b.f.d., dos.
Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.
Sobitov O‘lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.
Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.
Tojibayev Komiljon Sharobiddinovich, b.f.d., akad.
Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.
Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.
Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.
Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.
Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.
Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.
O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.
O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.
Hajiyevo Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.
Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.
Xudoyberganov Oybek Ikromovich, PhD, k.i.x.

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№8/4 (117), Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2024 y. – 180 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasi

МУНДАРИЖА

FILOLOGIYA FANLARI

Abduolimova M.N. Joy nomlarini bildiruvchi mifonimlar	5
Abdusalomova K. Matnazar Abdulhakim she'riyatiga xorazm adabiy muhitining ta'siri	7
Aglamov T.X., Yodgorova Sh.Sh. Masal janrining etnogenezisi va taraqqiyot tamoyillari	11
Atajanov S.S. Erkin Samandarning "Sulton Jaloliddin" romanida analitik folklorizmlarning istifodasi	14
Avazova S.P. Qay biri "shariatga begona"? Rubobmi? Doira?	17
Axmadaliyeva G. "Qo'rquv" konseptiga doir paremiyalarning kognitiv qatlamlar orqali tasnifi	20
Axtamova N.B. O'zbek tilida "ona" leksemasi va uning leksik-semantik xususiyatlari	22
Bozorbekov A. Logistika terminlarining funksional lisoniy manzarasiga chizgilar	25
Ergasheva H.O'. Faxriyorning "Dardning shakli" to'plamidan o'rin olgan she'rlari poetikasi	30
Eshchanova G. "Edigo" dostonining ilmiy tadqiqi xususida	33
Isakjanova Sh. Umrboqiy mavzularda an'ana va o'ziga xoslik	38
Jumayeva F.U. So'z ma'nosi tahliliga diskursiv-sinergetik yondashuv	41
Kasimova N.S. Linguistic and cultural characteristics of the concepts of "loyalty and betrayal" in american and uzbek literature	45
Kazakova M. Phonetic and phonogical features of american dialects	48
Kozieva I.K. Onomastic scales of the uzbek language	50
Matkarimov S.R. Tarjimada janr masalasi	54
Murodova G. Is'hoqxon Ibrat she'riyatidagi o'xshatishlarning lingvopoetik xususiyatlari	57
Nabiyeva Z.I. Ijtimoiy munosabat fe'llariga asoslangan prototip tushunchasining tavsifi	59
Nazarova D.I. Istiqlool davri she'riyatida aruz vazni va uning takomili	63
Nurova F.K. O'zbek tilida analitik shakllarning ifodalanishi	65
Ostonova S.N. Ingliz va o'zbek tillarida marosimlar tasvirlangan matn turlari	68
Pardayeva M. Analysis of ecological terms in uzbek and english, some translation problems	71
Payzibayeva M.S. Ingliz xalq ertak qahramonlari klassifikatsiyasi va ularning o'ziga xos xususiyatlari	74
Pazliddinov Sh.Q. O'zbek millatining o'ziga xosligi va milliy xarakter	77
Pulatova S.Sh., Yangiboyeva D.I. Devotion as the main factor in family relationship	80
Rajabov F.U. O'zbek tilshunosligida omonimlarning tasniflanishi	83
Rustamova Sh. Og'zaki nutq psixolingvistik tadqiq obyekti sifatida	86
Saydaliyeva M. Stylistic problems and ancient rhetoric	93
Shamshiyeva S.S. Olamning lisoniy manzarasida ilm-ilmsizlik konseptosferasi	98
Sherjanova F.K. Turk va fransuz tragediyalarida badiiy tasir	100
Siddiqova U.S. "Hayrat ul-abror" dostonining «Basmala» bobi - «Xamsa» ning ochqichi sifatida	103
Sulaymanova D.N. Formal-funksional tilshunoslikda qo'shma gap talqini: transformatsiyalashgan nominativ birliklarda aktantlar iyerarxiyasi	107
Suvankulova M.B. Cognitive stylistic approach to characterization in context	110
To'ymurodov D.D. "Zarbulmasal" dagi hayvon nomlarining semantik tasnifi	113
Tohirova D.M. Syuzan Hilning "I'm the king of the castle" asarida bolalarning hissiy va psixologik zulmga uchrashi	116
To'rayeva Z.B. "Kuntug'mish" dostonidagi metaforalarning lingvopoetik imkoniyatlari	123
Tugalov T.Y. O'zbek adabiy tanqidi tarixi va takomili	126
Ubaydullayev N. Adabiy tanqidchilikda biografik asarlar tahlili	129
Umarov U.A. Arxetiplarning badiiy tahlili va ularni o'rganishning ilmiy zaruriyati	132
Umurova F. Xushmuomalalikda minnatdorchilik semalarining badiiy matnda ifodalanishi	135

Xayrulloeva S.L. D.Delilloning “The body artist” asarida ruhiy jarohatning “ovoz” vositasida ifodalanishi	139
Yo’ldasheva M.F. Jek London asarlari tarjimalarining leksik-semantik va pragmatik xususiyatlari	142
Zaylobova N.T. Dramatik asarda avtor munosabatining ifodalanishi	144
Абдуллаева М.С. Оммавий ахборот воситалари орқали ёритиладиган пиар материалларининг тили ва услуби	147
Байэшанов М.М. Историческая правда и пути развития русской литературы	151
Барноева С.У. Пословицы и поговорки в современном мире	155
Давидходжаева Ш.И. Языковая картина мира: лингвистическое описание	158
Есемуратова Н. Особенности использования пословиц и поговорок в неизменном виде в поэзии И. Юсупова	161
Нишонова Х.Ю. Аъзам Ўктам шеърятда поэтик образлар: анъана ва новаторлик	164
Раджабова Г.А. Мортальные мотивы в творчестве Г.Ф. Шпаликова	168
Хусанов М.Т., Джалматова З.Д. Роман Айрис Мердок «Под сетью» в контексте творчества «рассерженных молодых людей»	171
Шукурова Ф.Х. Композиционные формы психологизма в романе Улугбека Хамдама «Бунт и смирение»	173
Югай М.Г. Методология и основы формирования стилистики	176

bilan, boshqalari saroy shoirlari deyilib, ularning asarlari chetga surib qo'yildi. Natijada o'tmish adabiyoti ta'siri ostida ijodiy tafakkuri shakllanishi mumkin bo'lgan shoirlardan adabiyotimiz mahrum bo'ldi. 20-yillardan boshlab mafkuraviy zo'ravonlik, adabiyotga tazyiq kuchaya bordi. Bu yillari aruz va uning mumtoz janrlari matbuotda deyarli bosilmas edi. Aksincha, sochma she'r, mayakovskiycha marshlar saviyasidan qat'iy nazar to'xtovsiz bosilardi. 30-yillarning ikkinchi yarmidan qatag'on boshlanib, xalq behisob moddiy va ma'naviy yo'qotishlar ko'rdi. Shu yillarda ham shoirlar xalqning shod-u xurramligini, o'sha davr mafkurasiga xos balandparvoz g'oyalarni tarannum etib, g'azallar yozishga majbur edilar. Jumladan, Habibiy, Sobir Abdulla kabi shoirlarning g'azallarida shunday soxtalik, balandparvoz tumtaroqlik kuchliligi kuzatiladi. Lekin 40- va 50-yillar she'riyati uchun bu umumiy holat edi. Natijada aruzga nisbatan ham nigilistik munosabat kuchaydi. Bu o'rinda Mirzo Tursunzoda va Abdulla Kahhorning aruzga munosabatlarini eslash kifoya.

XX asrning 60-yillarida «Insonning faqat mehnatiga, faoliyatiga emas, balki ruhiy olamiga qiziqishining oshishi natijasida poeziya o'zining barcha imkoniyatlarini ishga solib, inson qalbini yoritishga va uning qalb manzaralarini tasvirlashga kirishadi. Mumtoz o'zbek adabiyoti esa bu sohada ma'lum tajriba va an'analarga ega edi. Ana shu tajriba va an'analarni puxta egallagan Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Jamol Kamol yuksak mahorat bilan aruzni zamon ruhiga, odamlarimiz dili-yu tiliga yaqinlashtirdilar. Adabiyot ahli, she'riyat muxlislari ko'z o'ngida aruz yangi bir dunyo bo'lib yosharib ketdi. Keyingi o'n yilliklarda barmoq vazni bilan bir qatorda aruzda ham muvaffaqiyatli qalam tebratayotgan Mirzo Kenjabek, Tohir Qahhor, Matnazar Abdulhakimov, Ikrom Otamurod, Samandar Vohidov, Isroil Subhon, Sirojiddin Sayyid, Zikrilla Ne'mat va boshqa shoirlar she'riyatga kirib keldilar. [5]

Agar XX asr aruziga e'tibor qaratilsa, uning tarixi uch davrga bo'linganini anglash mumkin:

1. XX asr boshlari aruzi – mumtoz an'analarning davom etishi bilan bog'liq.
2. XX asrning 60-yillarigacha bo'lgan aruz – tushkunlik davri.
3. 60-yillardan keyingi davr aruzi – bu vaznning qayta jonlanish, yosharish davri.

Biz bu tasnifni davom ettirib, uning 4-davri sifatida mustaqillik davri aruzini qayd etamiz. Bu davr aruzining o'ziga xosligi shundaki, unda mumtoz va zamonaviy she'riyat an'analarning o'zaro omuxtalashtirilganligi kuzatiladi.

Davrlar o'tishi bilan til rivojlanib, o'zgarib boradi, bir millat yoki davr miqyosidagi she'riy tizimlar bir-biriga o'zaro ta'sir etadi, natijada vaznda ham o'zgarishlar bo'lishi tabiiy. Ma'lumki, aruz «Qutadg'u bilig»dan boshlab o'n asr mobaynida o'zbek she'riyatining yetakchi vazni bo'lib keldi. Aruzning bu uzoq muddatlik «zafarli yurishi» davrida ham uning ichida kechgan o'zgarishlar, o'sishlar, uning inkorini tayyorlagan jarayonlar bo'lganligini inkor etmagan holda aytish kerakki, to XX asr boshlarigacha aruz qoidalari qat'iy qolip tusini oldi va shu maqomni saqlab turdi. Zamonaviy aruz ham dastlab ana shu an'anaviy shakllarda namoyon bo'ldi, desak yangilishmaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A.. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – T.: Ma'naviyat, 2008. – B.30
2. Rustamov A. Aruz haqida suhbatlar. – T.: Fan, 1972. – 56 b.
3. Adabiy turlar va janrlar. Uch jildlik. II jild. – T.: Fan, 1992. – 248 b.
4. Begimqulov D. She'riyatimiz yulduzi. Kitobda: A.Oripov. Tanlangan asarlar. To'rt jildlik. 1-jild. – Toshkent: G'. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. –B. 371-389.
5. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. –Toshkent: O'zbekiston, 2002. –558 b.

UO'K 80/81

O'ZBEK TILIDA ANALITIK SHAKLLARNING IFODALANISHI

F.K.Nurova, katta o'qituvchi, tadqiqotchi, Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilida analitik shakllarining ifodalanishi yuzasidan olib borilgan tadqiqotlar tahlil qilingan hamda aglutinativ va flektiv tillarda analitik shakllarning ifodalanishi taqqoslangan.

Kalit so'zlar: Flektiv til, agglyutinativ til, grammatik ma'no, modal ma'no, sintetik shakl, to'liqsiz fe'llar, fleksiya, o'zak, atribut, sanskrit tili.

Аннотация. В статье анализируются исследования, проведенные по выражению аналитических форм в узбекском языке, и сравнивается выражение аналитических форм в агглютинативных и флективных языках.

Ключевые слова: Флективный язык, агглютинативный язык, грамматическое значение, модальное значение, синтетическая форма, глаголы несовершенного вида, словоизменение, основа, признак, санскритский язык.

Abstract. The article analyzes the research conducted on the expression of analytical forms in the Uzbek language and compares the expression of analytical forms in agglutinative and inflectional languages.

Keywords: Inflectional language, agglutinative language, grammatical meaning, modal meaning, synthetic form, imperfect verbs, inflection, stem, attribute, Sanskrit language.

Tilshunoslikda morfologik tasnif muhim ahamiyatga ega. Morfologik tasnifning ahamiyatli tomoni, tillarning morfologik xususiyatlari, shakllari asosida muayyan guruhga birlashtiriladi va turg'un sistematsizatsiyaga, qat'iy klassifikatsiyaga erishiladi. Mazkur klassifikatsiya tillarning kelib chiqishi, tarixi, qarindoshlik aloqalari bilan qiziqmaydi, balki tillarning grammatik xususiyatlarini: o'zak va qo'shimchalarni qarama-qarshi qo'yish asosida taqqoslab o'rganishga asoslanadi. U yoki bu tilning qaysi morfologik shaklga mansub ekanligini aniqlash uchun esa shu tillardagi so'z qurilishi (strukturasi) o'rganiladi. Morfologik tasnif - so'zlarni, o'zak va qo'shimchalarni qarama-qarshi qo'yishga asoslangan. XIX asr o'rtalarida nemis komparativist olimi Avgust Shleyxer (1821-1868), aka-uka Shlegellar (Fridrix Shlegel va Avgust Shlegel) hamda Gumboldt g'oyalarini umumlashtirib, o'zaklar – ma'no, affikslar esa munosabatni ifodalashini isbotlaydi. O'z vaqtida F.Shlegel (722-1829) o'zining «Hindlarning donoligi va tili» (1809) nomli asarida sanskrit tilini grek, latin va turkiy tillar bilan chog'ishtirib, tillarni ikki tipga ajratiladi: a) affikslar tillar, b) flektiv tillar. Avgust fon Shlegel esa o'zining «Provansal tili va adabiyoti haqidagi mulohazalar» (1818) nomli asarida tillarni 3 tipga bo'ladi: a) flektiv; 2) agglyutinativ va 3) amorf tillar. V.Gumboldt esa bu qatorga polisintetik tillar guruhini ham qo'shadi. Avgust Shleyxer mana shu faktlarga asoslanib, dunyo tillarini 3 tipga ajratadi: o'zakli yoki ajratuvchi (ruscha: корневые, изолирующие), agglyutinativ va flektiv.

O'zakli yoki ajratuvchi tillar. Bu tip tillar qo'shimchali tillarga zid qo'yiladi, chunki bunda grammatik munosabat ifodalovchi affikslar bo'lmaydi. Grammatik ma'nolar yordamchi so'zlar, so'z tartibi, intonatsiya, urg'u (ularning musiqaviyligi kuchli) yordamida yuzaga chiqadi. Xitoy, birma, tay, tibet va boshqa Janubi-Sharqiy Osiyo tillari kiradi. Xitoy tili o'zakli (ajratuvchi) tillarning tipik vakili hisoblanadi. Bunda analitik strukturali so'zlarda suffiks o'rnida mustaqil so'z, morfema qo'llaniladi. Masalan, (gunjen - ishchi) ish + odam strukturali; nuyjen – ayol. Bunday polysuffikslar talaygina: sza, ish, sin, xau. Sza (sze, za): fansza-uy, chjozsza-stol, itsza-stul, putsza-do'kon va h.k. Xitoy tilidagi fe'llar esa bog'lamasiz ham kesimga aylanishi mumkin: Ma pao – Ot yuguryapti; Ta kan bao – U gazeta o'qiyapti; Vo chi – Yeyapman. Xitoy tilida so'zlar ko'p ma'noli va polifunksional (bir necha vazifalarda). Masalan, xao so'zi turli so'z birikmalari va kontekstlarda turli xil ma'no anglatadi: xao jen – yaxshi odam, si xao – yaxshilik qilish, dzio xao – qadimgi do'stlik, xao vo – Bu kishi meni yaxshi ko'radi. Ajratuvchili – analitik tillarda ton va urg'u asosiy rol o'ynaydi: tovushning pasayishi va ko'tarilishi hatto fe'l zamonlarini ham ifodalaydi. Bu tillarni – amorf deb atash ham mavjud (amorf-grekcha amorphos – «shaklsiz» demakdir). [3]

Agglyutinativ tillar. Bu tip tillar o'zak va qo'shimchani erkin aloqasiga asoslanadi. Masalan, turkiy tillar, fin-ugor, mo'g'ul, dravid, bantu, yapon va b. Bunday affikslar bir ma'nolidir: maktabimizga so'zida [-imiz] – egalik, [-ga] – jo'nalish; tatar tilida avel-ovul (bosh kel.), avela – o'rin-payt; venger tilida haz-uy, hazba – uyda, hazan – uylar, hazan ba - uylarda. Yuqorida aytib o'tganimizdek, o'zak va qo'shimchalar erkin birikadi, mexanik ravishda qo'shilaveradi, lekin o'zak bilan birikib, singib ketmaydi, balki ajralib turadi; o'zak va affikslar alohida qo'llanmaydi. Turkiy tillar uchun prefiksatsiya emas, so'ng qo'shimchalar xosdir; qo'shimchalar o'ngdan chapga qarab ketma-ket qo'shilaveradi: ko'zlarimning.

Flektiv tillar. Bunday tipga, avvalo, hind-yevropa tillari, somxom tillari kiradi. Agglyutinatsiyadan farqli ravishda, fleksiyada o'zakka affiks alohida, mustaqil qo'shilmaydi, balki

o'zakka singib ketadi, natijada o'zak shaklini, tarkibini o'zgartiradi. Ingliz, nemis, rus va fransuz, ayniqsa, arab tillari misolida flektiv tillarning morfologik asoslarini kuzatish mumkin: ingliz tilida begin-began, find-found, bring-brought va ko'plik formalari: goose-geese, foot-feet, tuth-tooth; nemis tilida: schreiben-schrieb, fahren-fuhr; bruder (aka-uka) – bruder, buch-bucher va h.z. Rus tilida ko'plab so'zlar fleksiya formalari ifodalanadi: вижу (видеть) – видишь (видит); fransuz tilida undosh tovushlarning almashishi sifatning rod formalari ham o'zgartiradi: a) grand – katta (большой – muj. r.) ([d] tovushi talaffuz qilinmaydi.) b) grande – (большая – jen.r.) ([d] talaffuz qilinadi.) Flektiv tillarning tipik namoyandasi arab tilidir. Bunda o'zak-negiz faqat undosh tovushlardan iborat formula bo'lib, yangi ma'noli so'zlar unli tovushlar qo'shilishi natijasida hosil bo'ladi: HBB – hubub (sevmog) – uhubub-sev; mahbub-oshiq, sevimli; mahbuba ma'shuqa, sevimli ayol; muhabbat-ishq, sevgi; habib, habiba-sevimli, sevgili; Flektiv tillarda agglyutinativ tillardan ajralib turadigan yana bir morfologik jihat-qo'shimchalarning ko'p ma'noli va polifunksionalligidir. Rus tilida: видел so'zidagi [-ел] qo'shimchasi zamon (o'tgan), son (birlik), shaxs (I), mayl, rod ma'nolarini ifodalaydi. [3]

Polisintetik tillar. Amerika hindulari, chukot, koryak va boshqa tillar. Bu tillarning asosiy morfologik xususiyatlari – ega, aniqlovchi, to'ldiruvchi va holni ifodalab kelgan so'zlar fe'l bilan birikib, murakkab tarkibli qo'shma so'z formasiga o'xshash gap hosil qilishidir. Bunda gap boshida ega, oxirida kesim, to'ldiruvchi, hol, aniqlovchilar esa ega bilan kesimning o'rtasida keladi.

Tillarning tipologik xarakteristikasida yana analitik va sintetik tuzumdagi tillar farqlanadi. Analitik – grammatik munosabatlar qo'shimchalar orqali emas, analitik vositalar (so'z tartibi, bog'lovchi, ko'makchi) yordamida ifodalanadi. Masalan, ingliz, fransuz, fors tillari. Roman tillari, daniya tili, yangi grek tili (va boshqalar) ham kiradi. Sintetik – grammatik ma'no qo'shimchalar orqali ifodalanadi. Qadimgi hind-yevropa, hozirgi litva, nemis, slovyan va turkiy tillar shu siraga kiradi. Shuni ta'kidlash lozimki, tillar sof analitik yoki sof sintetik bo'lmaydi. Analitik tilda sintetik vositalar, sintetik tizimdagi tillarda analitik unsurlar uchraydi. Masalan, o'zbek tilida: Kitobni ukamga oldim (sint.). Kitobni ukam uchun oldim (anal.). Sintetik til bo'lmish rus tilida ham буду ждать, будем ждать kabi (yordamchi fe'l) analitik hodisalar mavjud. [3]

O'zbek tilidagi analitik shakllar ot so'z turkumida ko'makchilar, fe'l so'z turkumida esa ko'makchi fe'llar va to'liqsiz fe'llar yordamida hosil qilinadi. Fe'llardagi analitik shakllar o'ziga xos modal ma'nolarni ifodalaydi. Fe'llardagi modal ma'nolar analitikdan tashqari sintetik shakl, juft va takroriy shakllar vositasida ifodalanadi.

Fe'ldagi modal ma'no sintetik shakl vositasida ifodalanganda, fe'l negiziga ish-harakatning davomliligi, takroriyliigi, kuchsizligi kabi qo'shimcha ma'nolarni qo'shadi-gan shakl yasovchi qo'shimchalarni qo'shish bilan hosil qilinadi. Fe'llarda modal ma'no yasovchi affikslar quyidagilar:

1) -la affiksi fe'l negiziga qo'shib, takror, davomiylik ma'nosini bildiradi: *savala*;

2) **-gila (-kila, -qila, -g'ila):** *yugurgila, turkila, tortqila, ezg'ila* kabi. Bu affikslar ham fe'l negiziga qo'shib, harakatning davomiyliigi, takror ma'nosini bildiradi;

3) **-(i)msira, -(i)nqira:** *yig'lamsira, kulimsira, oqarinqira* kabi. Bu affikslar fe'l negiziga qo'shib, harakatning kuchsizlanishini bildiradi;

4) **-(i)sh** affiksi ham harakatning kuchsizligini bildiradi: *oqarishdi, to'lishdi* kabi;

5) **-qilla:** *chopqilla*. Bu affiks fe'l negiziga qo'shib, harakatning zudlik bilan bajarilish ma'nosini bildiradi.

Fe'ldagi modal ma'no analitik shakl vositasi bilan ham ifodalanadi. Bunday shakl ko'makchi fe'llar va to'liqsiz fe'llar yordamida hosil qilinadi: yozib ko'r, aytib chiq, ko'ra qol, so'zlay boshla, borar edi, kelgan emish, olgan ekan kabi. [1]

Ko'makchi fe'llar bilan shakllangan qo'shimmalar ikki so'z shaklidan tashkil topib birinchi qism leksik ma'no ifodalaydi. Shu tufayli yetakchi fe'l deb yuritiladi; ikkinchi qism esa unga birikib grammatik ma'no ifodalaydi va ko'makchi fe'l sanaladi. Ko'makchi fe'llar yetakchi fe'lning ma'nosiga qo'shimcha modal ma'nolar qo'shadi.

Ko'makchi fe'l tarzida *kel, ket, bor, yubor, chiq, o't, tur, qol, bo'l, ol, bil, qo'y, ber, tashla, ko'r, boshla* kabilar keladi.

Bu fe'llar bir tomondan, harakat ma'nosini ifodalab, mustaqil holda leksik birlik sanaladi, ya'ni *keldi, borgan, ko'rmoqchi, bilib* kabi; ikkinchi tomondan boshqa fe'l shakliga qo'shilib, o'z leksik ma'nosini vaqtincha yo'qotib, o'zi aloqador bo'lgan fe'lining leksik ma'nosiga qo'shimcha ma'no qo'shadi va ko'makchi fe'lga aylanadi. Masalan: *yoza boshladi* fe'li tarkibidagi *boshladi* fe'li mustaqil holda boshlanish harakatini ifodalaydi, lekin bu qo'shilmada o'z leksik ma'nosini yo'qotib yozish fe'lining leksik ma'nosiga qo'shimcha ma'no, ya'ni harakatning endi boshlanish ma'nosini qo'shgan.

Shu bilan birga ko'makchi fe'l yetakchi ma'nosiga davomiylik, tugallanganlik, takroriylik, harakatning bajarilish imkoniyati, harakatning boshqa shaxsdan so'zlovchiga yo'nalishi, harakatning bajarilish usuli kabi modal ma'nolarni qo'shadi.

Ko'makchi fe'llar fe'lining -b(-ib), -a(y), bilan yasalgan ravishdosh shakllari bilan birga qo'llanadi: *o'qib ber, o'qiy boshla* kabi.[4]

Yetakchi va ko'makchi fe'ldan tashkil topgan fe'l shakllarida ko'makchi fe'l birdan ortiq bo'lishi ham mumkin: *yoziq qo'ya qol, yoziq berib qo'ya qol* kabi.

Ko'makchi fe'lli fe'l shakllarida shaxs-son qo'shimchalari ko'makchi fe'llarga qo'shiladi: *yoziq chiqdim, yoziq chiqding, yoziq chiqdik, yoziq chiqdingiz* kabi.

Fe'lining analitik shakllari nutqdagi ta'sirchanlikni oshirish bilan birga undagi jozibadorlikni va lug'at boyligining jimjimadorligini oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. B.B.Mengliyev, G.Tojiyeva. *Tilshunoslikka kirish*. Qarshi-2007
2. M.Hamrayev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova, Sh.Yo'ldosheva. *Ona tili* (darslik) Iqtisodiyot-Moliya, Toshkent, 2007-yil.
3. R.Ikromova, D.Muhamedova, M.Hamrayev. *Ona tilidan mashqlar to'plami*. (o'quv qo'llanma). TDPU, Toshkent, 2009-yil.
4. Q.Sapayev. *O'zbek tili* (o'quv qo'llanma) Nizomiy nomidagi Pedagogika instituti, Toshkent, 2013-yil
5. R. Sayfullayeva, M. Abuzalova, N. G'aybullayeva. *Tilshunoslik nazariyasi* (o'quv qo'llanma) BuxDU, Toshkent 2021-yil.

UO'K 811

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAROSIMLAR TASVIRLANGAN MATN TURLARI

S.N.Ostonova, Xalqaro aloqalar bo'lim boshlig'i, Osiyo Xalqaro Universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Maqolada ingliz va o'zbek marosimlariga oid matnlar ko'pincha og'zaki badiiy shaklda yaratilgani, poetik nutq hosilasi ekani, ularning har biri o'ziga xos leksikaga egaligi, shu so'zlar vositasida axborot uzatishga moslangan ilmiy- ommabop, etnofol'kloristik matnlar ham yaratilgani asoslangan, hamda marosim matnlari orqali fol'klorda "matn" tushunchasi, unda til va nutqning munosabati, arxaik va zamonaviy leksik qatlamga egaligi, she'riy va nasriy turi, ko'p funksiyaliligi, tuzilishi jihatidan serqatlam integrasion hodisa sifatida iyerarxik munosabatlarni ifoda etishi tufayli tarjimada muammolar keltirib chiqarishi aniqlangan;

Kalit so'zlar: marosimlar, madaniyat, folklor, xalq, komponent, avlod, o'zbek va ingliz adabiyoti.

Аннотация. В статье тексты об английских и узбекских обрядах зачастую созданы в устной художественной форме, являются продуктом поэтической речи, каждый из них имеет свою лексику, научно-популярную, этнографическую, адаптированную к передаче информации. через эти слова оно основано на создании замкнутых текстов, а понятие «текст» в фольклоре через обрядовые тексты, в которых соотношение языка и речи, владение архаичным и современным лексическим слоем, поэтическим и прозаическим типом, многообразно. -функциональность, иерархичность как явление многоуровневой интеграции с точки зрения структуры, вызывает проблемы при переводе из-за выражения связей;

Ключевые слова: обряды, культура, фольклор, народ, компонент, поколение, узбекская и английская литература.

Abstract. In the article, the texts on English and Uzbek rituals are often created in an oral artistic form, they are the product of poetic speech, each of them has its own lexicon, scientific-

popular, ethnographic, adapted to the transmission of information through these words. It is based on the creation of cloistered texts, and the concept of "text" in folklore through ritual texts, in which the relation of language and speech, possession of archaic and modern lexical layer, poetic and prose type, multi-functionality, hierarchical as a multi-layered integration phenomenon in terms of structure. it has been found to cause problems in translation due to the expression of relationships;

Key words: rituals, culture, folklore, people, component, generation, Uzbek and English literature.

Marosimlar izohlanuvchi matnlar orqali ularning kelib chiqish tarixini, o'tkazilish maqsadi va tarzini bilib olish, bu marosimlar jarayonida amalga oshiriladigan rituallarni chog'ishtirish natijasida ularning bir-biriga o'xshash yoki farqli jihatlarini aniqlash imkoni tug'iladi. Shuningdek, marosim jarayoni, marosim ovqatlari, ularning tayyorlanishi, dasturxonga tortilishi, turlari, milliylik, lokallik kasb etishi oydinlashadi. Marosim predmetlari xalqning yashash joyiga, madaniy turmush tarziga, e'tiqodiy qarashlariga binoan farqlanishi ayonlashadi. Xususan, marosim fol'kloridan iborat verbal komponent og'izdan-og'izga, avloddan-avlodga o'tish jarayonida variantlashishi kuzatiladi. Marosimiy matnlarda qo'llanuvchi so'zlar xalqning ijtimoiy hayoti bilan bog'liqligi sababli ularning boshqa tillarda ekvivalentlari mavjud bo'lmaydi. Bunday so'zlarni tarjimada berishda olim va tarjimonlar transliterasiya, izoh berish kabi tarjima usullaridan ko'proq foydalanishlari ko'zga tashlanadi. Jumladan, o'zbek marosimlarining inglizcha o'girmalarida ayrim xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilgan bo'lsa-da, xorijlik o'quvchilar milliy marosimlarimiz haqida ayrim ma'lumot bilan tanishtirilgan.

Matnning eng muhim turi adabiy matndir. Shuningdek, matnlar diaxron va sinxron aspektda o'rganishni taqazo etadi. Bu esa uning qadimiy, mumtoz, zamonaviy tiplari borligidan darak beradi.

Matnlar ilmiy, ilmiy-ommabop, badiiy turlarga ham bo'linadi. Bundan esa ularning badiiy va badiiy bo'lmagan ko'rinishlari borligi anglashiladi. Bu kabi matnlar o'rtasidagi asosiy farqlarni ochib berish uchun badiiy matnni tashkil etish tamoyillari tekshiriladi. Badiiy adabiyot lingvopoetik tadqiq usuli orqali o'rganiladi. Bunda asosiy e'tibor ijodkorning dunyoqarashi, voqelikka

hissiy-modal munosabati, ijodiy tafakkurining o'ziga xosligi, tili kabilarga qaratiladi.

Badiiy matn nazariyasining asosiy qoidalari shundan iboratki, uning asosini dunyoni obrazli idrok etish tashkil etadi. Badiiy matnlar she'riy, nasriy, dramatik turda yaratilishi ma'lum.

Badiiy matnni tashkil etish o'ziga xos murakkablik va ko'p funksiyalilik bilan ajralib turadi, u nutq aloqasining boshqa turlarida yuklanmagan, ahamiyatsiz bo'lib qoladigan jihatlar va darajalardan faol foydalanadi, buning natijasida badiiy matnning tuzilishi ko'p qatlamli tuzilishga ega bo'ladi. Qatlamlar orasidagi o'ziga xos ierarxik munosabatlar bilan birlashib ketadiki, bu ko'pincha tarjimada tarjimon tomonidan katta ijodiy kuch talab qiladi.

Marosim matnlari estetik ahamiyat kasb etadi. Ular dastlab bir muallif matni sifatida yaratilgan bo'lsa-da, keyin og'izdan-og'izga, avloddan avlodga o'tishi natijasida ko'pchilik, turli mualliflar yaratgan matnga aylanadi.

Marosim matnlari til va nutq hodisasi, kishilarning poetik tafakkuri mahsuli sifatida ko'plab tadqiqotchilar (tilshunos, adabiyotshunos, fol'klorshunos, etnograf, faylasuf, tarixchi, san'atshunos va boshqalar)ning tadqiqot mavzusi hisoblanadi. Marosim matnlarida mualliflar biror-bir real voqelikka yoki e'tiqodiy ishonchga munosabatini so'z orqali yetkazish imkoniga ega bo'ladilar. Yuqorida ko'rib o'tganimizdek, marosimlarga oid tushunchalar ularga oid atributlarni ifodalovchi so'zlar orqali dekodlanadi. Bunda marosim matni, uning subtekst mazmuniga bir qator germenevtik ko'rsatkichlar ham qo'shiladi. Marosimga aloqador matnlarda xalq urf-odatlar, rasm-rusmlari nomlari lingvokul'turema (madaniyatni aks ettiruvchi so'zlar), etnografizmlar (xalq turmushini aks ettiruvchi so'zlar) qo'p qo'llanishi bilan e'tiborni tortadi, shuning uchun ularni tushunishda madaniyatshunoslik, etnografiya, dialektologiya bilan ham bog'liq holda ishlashga to'g'ri keladi.

Marosimlarni izohlovchi ilmiy yoki ilmiy-ommabop matnlar yoki ularning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiluvchi badiiy matnlar yaratiladimi, bunda ularga oid tushunchalarni ifodalovchi leksik-semantik hamda stilistik birliklardan, sintaktik qurilmalardan foydalaniladi. Doirasi cheksiz, xilma-xil bunday germenevtik ko'rsatkichlar yangi komponentlar hisobiga to'ldirilib boriladi. Bu